

## HERE ARE SOME EFFECTIVE WAYS TO TEACH A FOREIGN LANGUAGE IN PRESCHOOL

Sh.A.G'aniyeva

Shahrisabz branch of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami,  
Head of the International Cooperation Department

**Annotation:** The article emphasizes the benefits of teaching foreign languages from an early age and its importance in the development of children, the growth of their worldview, becoming a scientific, intelligent, broad-minded, relevant specialist for society and the state. Also, the organization of interesting, useful and effective lessons for teaching foreign languages in preschool education institutions serves as a basis for training students to be multilingual, broad-minded, able to perform several tasks simultaneously.

**Keywords:** Foreign languages, skills, creativity, multimedia, drawing, travel lesson, effective, creative thinking;

Hozirgi kunda nafaqat mifik, litsey o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalariga, balki maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyalanuvchilarga ham chet tilini xususan ingliz tilini o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Iqtisod, fan va madaniyat jihatdan rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganish jahon ilm fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omilidir.

Til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Psixologlarning fikricha bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ulardagi taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi buning asosiy sabablaridandir. Biroq kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatishning anchagina qiyinchiliklari ham mavjuddir. Bog'cha yoshdagi bolalar kattalardek mantiqiy fikrlash yoki solishtirib o'rganishni bilmaydilar. Ular shunchaki ko'rigan narsalarini yodda saqlaydilar va tasavvur qiladilar. Shunday ekan kichik yohdag'i bolalarga xoriiy tilni o'rgatish ancha mushkul va ma'suliyat talab etadigan vazifadir.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalarni tilga o'rgatish o'qituvchidan asosan mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Bunday yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish uchun bir xil dars usulidan emas, balki turli xildagi qiziqarli, faol, fikrlashga undaydigan dars mashg'ulotlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Darslar asosan 15 daqiqadan oshmasligi, bolalarni zeriktirib qo'ymasligi kerak.

Qiziqarli va samarali dars o'tishning turli usullari mavjud. Shulardan bir nechtasini ko'rsatib o'tamiz.

### 1.Qo'shiq va she'rlar orqali ingliz tilini o'rgatish.

Qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish esda qolishi qiyin bo'lgan harf yoki so'zlarni kuya solib o'rgatishdir. Masalan, turli xildagi, bolalarga mos chet tilidagi qiziqarli qisqa qo'shiqlardan foydalanish mumkin. Moslashuvchan sinf muhitini yaratish ba'zida har qanday ta'lif usulidan ko'ra muhimroqdir. Xonada dars boshida ingliz tilidagi yoqimli qo'shiq bilan o'qituvchi boshchiligidagi barcha bolalar birgalikda qo'shiq kuylaydilar va uning ohangiga mos ravishda biroz raqsga tushadilar. Bu o'z o'zidan ularning tanalarini chiniqtirib, yanada tetikroq bo'lishga va qo'shiqning so'zlarini tezroq yod olishga yordam beradi. Inglizcha she'r va qo'shiqlar yaxshi o'quv atmosferasiga tabiiy ravishda kirishga yordam beradi. Bolalarning o'z o'zini boshqarish qobiliyati sust bo'lib butun mashg'ulot davomida e'tiborini jamlashi. Shuning uchun o'qituvchi bolalar tinglashni yaxshi ko'radigan qo'shiqlarni, she'rlarni yoki tilni charxlash uchun xizmat qiladigan tez aytishlarni ko'proq o'rgatishi lozimdir.

### 2. Multimedia vositalari orqali chet tilini o'rgatish.

Biz maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarda chet tilida eshitish qobiliyatining oqsoqligini ko'p uchratishimiz mumkin, bu bolalarning yetarli darajada eshitish darslarini egallamaganligini bildiradi. Real hayotda bolalarimiz televizor ostida multfilmлarni jimgina tomosha qilishlarini ko'rishimiz mumkin. Bog'cha tarbiyalanuvchilariga chet tilidagi multfilm darslarini doimiy eshittirib borish lozim. Bolaning bog'cha davridan chet tili qobiliyatini rivojlantirish uning keying bosqichda barcha bilimlarni yengil qabul qilishiga yordam

beradi. Bolalar chet tilini o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, undagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladilar. Bog'cha yoshidagi bosqichda til qobiliyatining rivojlanishi asosan doimiy taqlid orqali shakkantiriladi va ko'pgina rollar asosan multfilmlarga taqlid orqali paydo bo'ladi. Shuning uchun multfilmni tomosha qilayotgan vaqtida bolalarning harakatlaridagi o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Shunday omillarni hisobga olgan holda multfilmlar, qo'shiqlar va turli video roliklar bolalar uchun til o'rganishda qiziq va samarali yo'l hisoblanadi deyishimiz mumkin. Shu sababli ham bugungi kunda bog'chalarni yuqori texnologiyalar bilan ta'minlash vaqt keldi. Hozirgi kunda ba'zi otanalar bolalarining multfilmga bo'lgan qiziqishidan tashvishga tushishadi. Aslida esa multfilmlar bolalarning dunyoqarashini kengayishiga, ularning tasavvur doirasining rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Undan tashqari til o'qitilayotgan guruhlarda bolalar soni ham qancha kam bo'lsa shuncha yaxshi. Tarbiyachi muntazam har bir bolaning psixologiyasidan kelib chiqqan holda ularga tarbiya usulini qo'llar ekan bu tarbiyachidan nafaqat tarbiyachi, balki bir vaqtning o'zida rassom, musiqachi, chet tili o'qitivchisi va yaxshigina psixolog bo'lish talab etiladi.

### 3. Rasm chizish orqali chet tilini o'rgatish.

Kichik yoshdagagi bolalar dars davomida turli xildagi rasmlarni chizish, ularni bo'yash va boshqa ko'pgina ajoyib narsalarni bajarishni yoqtiradilar. Rasmlar chizish va ularni bo'yash orqali bolalarga chet tilini juda samarali tarzda o'rgatish mumkin. O'qituvchi bolalarga rasm chizdirish orqali dars o'tar ekan, bu yo'l bilan u nafaqat ingliz tilini o'rgatish balki boladagi ijodkorlik qobiliyatini ham rivojlanishiga yordam beradi. Buyuk rassom Pablo Picasso: "Har bir bola rassomdir" degan edi. Bundan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, boladagi yashirin qobiliyatlarni yuzaga chiqarish juda muhimdir. Uning ijod qilishiga qo'yib berish lozim. U chizgan rasmlaridagi narsalarning nomini, shaklini hamda ranglarini ingliz tilida aytib berish orqali ingliz tilini o'rganadi. Yoki biror mavzuni tanlab u haqidagi rasmni o'qituvchi boshchiligidagi chizish va u haqida gapirish mumkin. Shuning uchun ham ba'zi chet el mamlakatlari bog'chlarida xususan Xitoyda bog'cha tarbiyachisi va o'qituvchilaridan rasm chizishni bilish talab etiladi. Bolalarni ijod qilishga undang, ana shunda qanday buyuk asarlar vujudga kelishini, ularning qanday yuksak cho'qqilarni zabit etishining guvohti bo'lasiz.

O'qituvchilarning eslab qolishlari kerak bo'lgan yana bir narsa bu hech qachon bolaga bosim o'tkazmaslikdir. Ularni majburlash shart emas, shunchaki ularni darsga qiziqtirish lozim. Yosh bolalar kattalarga qaraganda chet tilini osonroq o'rganishadi. Bolalarning har bir xatosini to'g'irlash ham shart emas. ular xato qilib bo'lsada gapirishni o'rganishadi, ulardagи xatolarni keyinroq ham to'g'irlash mumkin. Aks holda bolada chet tilida gapirishga nisbatan qo'rquv hissi paydo bo'lishi mumkin.

### 4. Sayohat darslari orqali o'qitish.

Nafaqat kichik yoshdagagi bolalar balki kattalar ham shunchaki tasavvur qilib o'rganishdan ko'ra o'rganayotga narsasini ko'rib, ushlab, his qilish orqali o'rgangan mavzusini hech qachon esdan chiqarmaydi. Xitoy faylasufi, konfutsiyalik asoschisi bo'lgan Konfutsiy bundan ancha asrlar oldin: "Ko'rdim va unutdim. Eshitdim va esladim. Bajardim va tushundim" degan dono so'zlarni aytib o'tgan edi. Shunday ekan bolalarni ham faqat xonada o'tirib tasavvur qilishga majbur qilgandan ko'ra ularni aynan shu muhitning o'ziga olib kirish samaralidir. Sayohat darslari bolalarga o'zları o'rganayotgan olamni yaqindan ko'rish, uni his qilib o'rganish imkonini beradi. Masalan bahor fasli haqida gapirsak bolalarni bog'chaning hovlisiga olib chiqib, tabiatdagi o'zgarishlar, barglar, gullar, qushlar va boshqa narsalarning nomlarini ingliz tilida aytishni o'rgatish mumkin. Yoki hayvonlar haqida gapirmoqchi bo'lsak ularni hayvonot bog'iga olib borishimiz va har bir hayvon oldida turib ularning nomi, rangi, katta kichikligi, shakli haqidagi so'zlarni o'rgatish mumkin. Bunday sayohat darslari orqali o'rganilgan so'zlar bolaning xotirasida bir umrga muhrlanib qoladi. Oxirgi izlanishlar shuni ko'rsatdiki, 2 haftadan so'ng inson o'qigan ma'lumotining 10% ini, eshitganidan 20% ni, ko'rganidan 30% ni, ko'rgan va eshitganidan 50% ni, aytganidan 70% ni va aytgan va bajarganidan esa 90% ni xotirasida saqlar ekan. Shunday ekan sayohat darslari kichik yoshdagagi bolalar uchun juda foydalidir. Xonada o'tirib, tasavvur qilish orqali o'rganilgan ma'lumotlar tezda esdan chiqadi, ammo aynan shu narsalarni o'z ko'zi bilan ko'rib, ushlab ularni his qilib, yoki qandaydir harakatlarni o'zları bajarish orqali o'rgangan so'zları hech qachon yoddan ko'tarlmaydi. Shu sabablradan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, bunday usullarni maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan kengroq qo'llash foydadan holi bo'lmaydi.

Ba'zi hollarda tarbiyachi kerakli natijalarga erisha olmasligini kuzatish mukin. Xo'sh buning sababi nimada? Tarbiyachining kerakli natijaga erisha olmasligining asosiy sabablaridan biri bu ularning savol-javobni to'g'ri qo'llamasligidadir. Juda ko'p bog'cha yoshidagi bolalar kam gap, tabiatan yoqtirmagan narsasiga nisbatan juda e'tiborsizlik bilan munosabat bildiradi. Buni yengib o'tish tarbiyachidan katta mashaqqatni talab etadi, uning berayotgan savollari tarbiyachining donoligini uning mavzuni puxta egallaganligini bildirib turishi kerak. Bolalar bilan olib borilgan ilmiy tajribalar shuni ko'rsatdiki, bolalarning sezgi organlari kattalarnikidan ko'ra ancha yuqori. Ular buni ifoda eta olmasalarda lekin his qilib turishadi va o'zlarining hatti-harakatlari bilan namoyish etishadi. Shulardan kelib chiqqan holda savol-javobni bir necha qismga bo'lish mumkin:

i. Tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o'rtasidagi to'siqlarni olib tashlash; tarbiyalanuvchi bu yo'l orqali bolalar qalbiga yo'l topa oladi. Ularga muloyimlik bilan savol-javobga kirishish kerak bo'ladi.

ii. Tarbiyachi barcha bolalarning ruhiyatidan kelib chiqqan holda savol bera olishi kerak, bu undan bolaning til darajasidan kelib chiqqan holda savol berishi talab qiladi. Bog'cha yoshidagi bolalarga qay yo'l bilan o'rnatmaylik baribir bolalar orasida biroz bo'lsada tildagi tafovutni sezish mumkin.

iii. O'tilgan mavzulardan ko'proq so'rash; bu ulardagi hayajonni yo'qotib, o'ziga nisbatan ishonchni oshiradi. Ularda yangi mavzuga ko'nikma hosil bo'lgunga qadar, o'zlari bilgan narsalar haqida so'rab yangi mavzuga tayyorlab olish kerak bo'ladi.

iv. Bolalarni rag'batlantirish; Oxirgi izlanishlar natijasi 12 yoshgacha bo'lgan bolalarning miyasi tanqidni umuman qabul qilmasligini, ammo rag'batni qabul qilishi orqali ko'pgina ijobiy natijalarga erishish mumkinligina ko'rsatmoqda. Shunday ekan bolalarni har qanday javobini rag'batlantirish orqali ham ularni ilhomlantirish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, bolalik davrida insonning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun eng yaxshi vaqt deb hisoblash mumkin. Shu sababli maktabgaha ta'lim tashkilotlarida o'qituvchilar bolalarning qiziqishlariga asoslanib fanni o'qitishi kerak. Ijodiy fikrlash va aqliy rivojlantirishni yangi multimedia texnologiyalari, turli zamonaviy usullar yordamida eshitish, rang bilish, shakl tanlash qobiliyatini shakllantirib borish, bolalarning tashqi axborotni qabul qilish qobiliyatini oshirish va ko'p qirrali fikrlarni rivojlantirishga ko'maklashish juda zarur. Kichik yoshdagи bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, balki qiziqarli mashg'ulot sifatida olib borilishi, bir nechta samarali usullardan foydalaniб dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun ham bog'cha tarbiyalanuvchilarining mukammal bilim olishlari, ularning aqliy hamda ijodiy fikrlashlarining rivojlanishi, o'z fikrlarini mustaqil, ishonch bilan bildira olish qoiliyatlarining shakllantirilishi juda muhimdir. Zero, biz hozirda tarbiya qilayotgan bolalarimiz bizlarning kelajagimizdir

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Эльконин Д.Б. Психология игры. М., 1978г.
2. Ekaterina Stoops, PhD Professor of Education, Личностный подход к обучению иностранным языкам детей с раннего возраста. Материалы международной научно-практической конференции «Современные тенденции развития дошкольного и начального образования»
3. О` Xoshimov, I.Yoqubov Ingliz tili o`qitish metodikasi. - Toshkent: 2003 - 270 c.
4. Ganiev A. Abdunazarova Z. Biophysics of brain activity. Brain activity in the development of" creative thinking"" mind map". Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT) P. 3 2021y.